

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6502636>

Xalilov Saidakbar Muratovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dunyo mamlakatlari, ulardagi korxonalar va tashkilotlarning kopayib rivojlanib borishi oqibatida dunyo davlatlarida boshqaruv usullarining umumiy qiymatda eskirishi yoki ularning prinsiplarining eskilanishi zamonaviy boshqaruv modellarini yaratishga yo bo'lma-sa ulardagi ayrim jixatlarni takomillashtirish yoki tubdan o'zgartishni talab etmoqda. Shu xusuda ularning kopchiligi zamonaviy boshqarish tipiga otishmoqda, ya'nikim boshqaruvning elektronlashuvini xohlamoqda. Bunday tizimga to'laqonli o'tish ko'p vaqt talab etsada o'zining boshqa prinsiplardan ustunligini, vaqtni unumdorligini oshirishni ko'rsatibgina qolmay, baxolash ya'ni KPI tizimi soddaroq qilib tadbiiq etishda qulaylik bermoqda. Elektron hukumat tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo'lgan bo'lsada, shu yillarning oxiriga kelib amaliyotda tadbiiq etila boshladi. Bunday hukumatni ishlab chiqishda asosiy rollarni dunyoning ikki rivojlangan davlatlari AQSH va Buyuk Britaniya yetakchilik qilishdi, ulardan keyin esa Yevropa mamlakatlaridan Italiya, Germaniya, Fransiya va Osiyo mamlakatlaridan Yaponiya va Singapur davlatlari bir necha bor amaliyotlar qilib korishdi.

Electron hukumat atamasi ingliz tilidan Electron Goverment sozidan olingan, davlat organlari fuqarolar tashkilotlar bilan minimal yuridik (jismoniy) o'zaro ta'sirga aloqada bo'lgan hukumat. Elektron hukumatni asosi hujjatlar aylanish tizimi va OAV larning elektrlashtirish tizimidir. Electron hukumat tizimining hozirda 4 ta modeli mavjud:

I. Kontinental Yevropa model(Yevropa ittifoqi mamlakatlarining electron hokumat modeli) - ushbu model milliy oliy siyosiy institutlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi, ularning tavsiyalari butun Evropa Ittifoqining barcha malakatlari tomonidan amalga oshirilishi kerak; yagona valyuta, yagona axborot xizmati. Ushbu modelda texnologiyani texnologiyani qo'llash birinchi navbatda fuqarolar foydalanuvchilarining ehtiyojlariga qaratilgan;

II. Anglo-amerika modeli(AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada davlatlarining electron hokumat modeli) – AQSH fuqarolariga hukumat to'grisdagi ma'lumotlarini taqdim e'tuvchi axborot magistrallarini taqdim etuvchi axborot magistrallarini yaratadi. Barcha xizmatlar ochiq shaffof va davlat zimmasiga aholi oldida katta ma'suliyat yuklaydi. Buyuk Britaniya dasturi "electron fuqarolar, electron biznes va electron hukumat " doiralari ga bo'linadi. Britaniya davlatida aslida davlat xizmat

ko'rsatishning strategic konsepsiyasi bo'lib bir nechta muammolarni hal etishga qaratilgan:

1. ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish;
2. ijtimoiy ma'lumotlardan keng ko'lamida foydalanish;
3. davlat xizmatini to'liq qamrab olish uchun sharoit yaratish.

III. Osiyo modeli(Osiyoning sharqida joylashgan mamlakatlar Yaponiya, Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa malakalarining electron hukumat modeli) – ushbu model boshqaruvning o'ziga xos turiga ega. Bu model hokimiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, madaniy va ta'limni axborot texnologiyalarini joriy etishga asosiy e'tiborini qaratgan. Butun mamlakat bo'ylab yagona electron makonning yaratilishi nafaqat davlat, balki demokratiyaning ham bir tamoyilidir.

IV. Rossiya modeli(Slavyan davlatlar electron modeli) – ushbu model dasturining asosiy maqsadlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari va iqtisodiyotni faoliyatini samarador

ligini oshirishdan iboratdir.

Hozirgi davrga ushbu modellar sof modelda uchratish qiyin. Bunga asosiy sabab esa mamlakatlar o'zlarining davlat va maishiy xizmatlarini, hokimiyat va organ soxolarini, 2019-2021-yillardagi pandimayadan so'ng esa ta'lim tizimini, va axborotlarni onalyn tarzda taqdim etish oqibatida modellarni o'zaro birlashuvi yuzaga keldi.

Electron hukumat tizimi rivojlanish tipiga ko'ra 3 turga ya'ni :

1. hukumat – aholi (government – citizens)
2. hukumat – biznes (government – business)
3. hukumat – hukumat (government - goverment)

Electron hukumat tizimidan foydalanish indeksini davlatlar aro tizimda koradigan bo'lsak Daniya, Avstraliya va Janubiy Koreya Respublikaliri yuqori indexni korsatib turibdi (2021-yil may oyi indeks tahliliga ko'ra). Bunday ko'rsantkichni WORLDMarkets Telecoms kompaniyasi esa dunyo mintaqalari ko'rsatkichida :

Shimoliy Amerika	51%
Yevropa	34%
Osiyo	34%
Yaqin Sharq	31.1%
MDX davlatlari	30.9%
Janubiy Amerika	30.7%
Tinch Okeaniya	30.6%
orollari	
Afrika	23.5%

Dunyo hamjamiyatida electron hukumatni rivojlantirishda ko'plab mamlakatlar turli xil usullardan foydalangan bo'lib bularning bari turli xil vaziyatlar olib kelgan. Moil uchun Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Qozog'iston tizimini olsak bo'ladi.

Qozg'iston Respublikasi birinchi prezidenti Nursultan Nazarbayev parlamentga 2004-yil 19-martdagi murojatida Qozog'iston Respublikasi elektron hukumatni rivojlantirish bayonoti bilan chiqdi. 2004-yilning 10-noyabr sanasida 2005-2007-yillar uchun mo'ljallanga "electron hukumat loyixasi" ishlab chiqildi va buni dasturni amalga oshirishda 4-bosqichli vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutdi, ya'ni

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 1. veb-portal va elektron hukumat shlyuzi, elektron hukumat to'lov shlyuzi, idoralararo elektron hujjat aylanishi; | 00 |
| 2. umumiy kalit infratuzilmasi, davlat organlarining yagona transport muhiti; | 7-20 |
| 3. identifikatsiya raqamlarining milliy reestrlari, elektron davlat xizmatlari. | 09-yill |

2

1. Axborot bosqichi – axborotni nashr etish va tarqatish;

2. Interaktiv bosqich – bu davlat organi va fuqarolarning bevosita va teskari o'zaro hamkorlik xizmatlar ko'rsatishdir;

3. tranzaksiya bosqichi – hukumat portal orqali moliyaviy va huquqiy operatsiyalarni amalga oshirish orqali o'zaro hamkorlik;

4. axborot jamiyati

arda elektron hukumat infratuzilmasi shakllantirildi, asosiy tarkibiy qismlar yaratildi

"Elektron davlat xaridlari" axborot tizimi yaratildi. 2010-yil 1-yanvardan boshlab – www.goszakup.gov.kz sayti orqali kotirovkalarni so'rash yo'li bilan davlat xaridlarini 100% elektron formatga o'tkazish. 2009-2010 yillarda tadbirkorlik subyektlari uchun "Elektron litsenziyalash", "Yagona notarial axborot tizimi" "Elektron notariat" loyihalari, "Elektron hokimlik" tizimlarini joriy etish. 2010 yilda portalda onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini taklif qiluvchi birinchi tranzaktsion xizmatlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, birinchi navbatda soliqlar, davlat boji, yig'imlar va yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalarni onlayn to'lash, 2011 yilda uy-joy kommunal xizmatlari uchun to'lovlar joriy etildi. 2011-yilda "Elektron hukumat" portali Qozog'iston fuqarolariga nikohni bekor qilish/nikohni bekor qilish va farzand tug'ilishini qayd etish to'g'risida ariza berish tartibini avtomatlashtirgan yangi elektron formatda FHDYo xizmatlarini taklif qildi.

Electron hukumat tizimini rivojlantirishda bo'yicha Tailand tizimi. Elektron hukumat tamoyillarini amalga oshirish uchun Tailand Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari vazirligi 2009-2014 yillar davomida zamonaviy elektron xizmatlar tizimini tashkil etish rejasini ishlab chiqdi. Keyingi bosqich 2016-yilda boshlangan va 2021-yilda tugaydigan "Besh yillik raqamli hukumat" loyihasi bo'ldi. Ushbu loyiha besh yil ichida Tailand davlat idoralarining 80% dan ortig'i identifikatsiya qilish uchun elektron hujjatlardan foydalanishini nazarda tutadi. 2008 yilda Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Tailandning

Yagona davlat elektron hukumat portali mavjud. 2018-yilda Tailand BMTning elektron hukumat reytingida 73-o'rinni egalladi.

Electron hukumat tizimini rivojlantirishda bo'yicha Belarus tizimi. 2010 yil 9 avgustda - Vazirlar Kengashining (1174-son) qarori bilan - 2015 yilgacha bo'lgan davrda Belarus Respublikasida axborot jamiyatini rivojlantirish strategiyasini qabul qilish ("Elektron hukumat" ni tashkil etish). "tizimi nazarda tutilgan). Strategiyani amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish uchun davlat organlari vakillaridan idoralararo ishchi guruh tuzilmoqda. Prezidentning 60-son qarori, 645-sonli Hukumat qarori bilan davlat organlari veb-saytlari mazmuniga nisbatan muayyan talablar belgilandi.

NIRUP "Amaliy dasturiy ta'minot tizimlari instituti" (Aloqa va axborotlashtirish vazirligi tuzilmasi tarkibiga kiradi). Ish yo'nalishlari:

1. Davlat organlari uchun yirik davlat axborot tizimlarini ishlab chiqish yoki yaratish: Adliya vazirligi (Yuridik shaxslar va tadbirkorlarning yagona davlat reestri), Soliqlar va yig'img'lar vazirligi uchun, Ijtimoiy ta'minot jamg'armasi uchun, Moliya vazirligining Qimmatli qog'ozlar boshqarmasi uchun va boshqalar;

2. Milliy avtomatlashtirilgan axborot tizimi, OAIS (aslida, u elektron hukumat infratuzilmasining yadrosidir);

3. Axborot resurslarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va axborot tizimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (institut ularning operatori sifatida Aloqa vazirligi tomonidan belgilanadi).

Shuningdek, hozirda ishlamoqda: elektron xizmatlarning yagona davlat portali, elektron davlat xaridlari auksionlari tizimi joriy etilmoqda (elektron formatda davlat xaridlari davlat (shahar) xaridlari to'g'risidagi shartnomani amalga oshirishni boshlash yo'lidagi birinchi qadamdir). "Belarus Respublikasida tadbirkorlik tashabbusini rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish to'g'risida" gi 4-sonli direktivada yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni elektron davlat ro'yxatidan o'tkazish va yuridik shaxslarning yagona davlat reestrining veb-portalini yaratish imkoniyati ko'zda tutilgan. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (USR). Loyiha tijorat maqsadlarida foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasida electron hukumatni rivojlantirish bo'yicha «Axborotlashtirish to'g'risida» va «Elektron hukumat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori asos bo'ldi. 2020 yil O'zbekiston BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo'yicha reytingida 6 o'ringa pastladi va 193 mamlakat orasida 87-o'rinni egalladi. O'zbekiston Elektron hukumatining rivojlanish indeksi (E-Government Development Index, EGDGI) o'rtacha jahon indeksi hisoblangan 0.4922 dan yuqoriroq bo'lib, 0.5434 ni tashkil etdi.

Dunyo jamiyatida electron hukumatni rivojlanib ketmasligida bir nechta salbiy ta'sirlar bor

- ko'plab sohalarning monopollashganligi;
- internet sifatsizligi va tezligining pastligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarning elektronlashishda savodxonligi pastligi;
- axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxasislarning yetishmasligi yoki boshqa davlatlarga ketib qolishi;
- axborot texnologiyalarining xavfsizlik darajasining pastligi.

Agarda dunyo davlatlari elektronlashtirish tizimiga o'tmasa bu aynan osha davlatning qoloqlashishiga, demokratiya indeksida pastlab ketishiga va o'z aholisini boshqa rivijlangan davlatlarga ketib qolishiga yo'l ochib beradi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. Исследования ООН: электронное правительство 2018;
2. O'RQ-395-son
3. Wikipediya
4. Axborot.uz